

## SAYFI SAROYINING “GULISTONI BIT-TURKIY” ASARI TILI XUSUSIDA.

**Eshonqulova Shahnoza Yusufovna,**

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti  
universiteti 2-bosqich magistranti

### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asari tili bo‘yicha ma‘lumotlar berilgan.

### **Kalit so‘zlar:**

Turk, turkiy til, qipchoq lahjasi, erkin tarjima, o‘zbek tili, turkiy xalqlar.

Sayfi Saroyi “Guliston” tarjimasini bilan o‘z ismini turk adabiyotiga oltin harflar bilan yozgan tarjimon va shoirdir. Asarlarini turkiy tilning qipchoq lahjasida yozgan.

Sayfi Saroyi Movarounnahrda, Oltin O‘rda davlatining poytaxti Saroyda yashab ijod qilgan. Misr va Turkiyada ham yashagan. “Guliston bit-turkiy” kitobidagi quyidagi misralar shoirning Misr maliklaridan birining xizmatida bo‘lganligi, qarib qolganligi tufayli o‘z vataniga ketish uchun malikdan ruxsat so‘raganidan dalolat beradi:

*Ilohiy bu qari miskin qulingni,  
Bag‘ishla ko‘rguzub to‘g‘ri yo‘lingni.  
Maliklar rasmidir dilshod qilmoq,  
Qarisa qullarin ozod qilmoq.  
Qari yorli quling Sayfi Saroyi,  
Faqiru benavo lutfing gadoyi.  
Ani lutfing bilan dilshod qilg‘il,  
Bag‘ishlab yozuqin ozod qilg‘il.*

Adib taxminan 1396-yilda vafot etgan. Sayfi Saroyining o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga qo‘shgan hissasi bebahodir. Undan bizgacha bir qancha g‘azal, qasida, qit‘a, ruboiylar, “Suhayl va Guldursun” dostoni, “Sinbondnoma”, “Guliston” kabi asarlarining erkin tarjimalari yetib kelgan. Bulardan tashqari, Sa‘diy “Guliston”i tarjimasiga kiritilgan original she‘riy parchalar, masnaviylar ham Sayfi Saroyi qalamiga mansubdir. (<http://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sayfi-saroyi.html>)

Sayfi Saroyining “Guliston bit-turkiy” asari turk lahjalarida so‘zlashuvchi xalqlar uchun o‘z davrida o‘rnak asar hisoblangan. Hatto maktablarda darslik sifatida ham o‘qitilgan. Siyosatchi, turkolog va adabiyotshunos olim Mehmet Fuat Ko‘prulu “Guliston bit-turkiy” haqida shunday yozadi: “Shu qadar aniq va toza tilda yozilganki, tarjimonning adabiy qudrati chindan ham har qanday tanqiddan ustun turadi. XIV asr qipchoq lahjasida adabiy nasrning bundan ortiq go‘zal bir namunasi topish imkonsiz”.<sup>1</sup>

“Guliston bit-turkiy” Sadiy Sheroziyning “Guliston” asarining erkin tarjimasidir. Sayfi Saroyi “Guliston”ning asosiy mag‘zini olib uni yangi hikoyatlar, qit‘a va baytlar bilan to‘ldirib, ona tilida xalqiga taqdim etadi. Sayfi Saroyi bu asarni o‘sha vaqtdagi Misr maligining iltimosiga binoan yozishni boshlagan. Shoirning o‘zi bu haqda “Guliston bit-turkiy” asari boshlanmasidasida shunday yozadi: „Iliq yoz kunlarida bir kun bpston ichinda, gullar orasinda bir necha zarif olimlar bilan o‘turub, insho ilmından bahs qilib, abyoti g‘arib va ash‘ori ajib o‘qudum esa, ul olimlarning ulusi aruz ilmından bir mushkul baytning taqattu‘in savol etti. Filhol javobin eshitib aytti: „Ey adibi g‘arib, senga bir muvofiq nasihatim bor, qabul qilsang, xayr bo‘lg‘ay”. Ayttim: „Buyurung”. Aytti: „Shayx Sa‘diy Gulistonin turkiy tarjima qilsang, bir sohib-davlat er oting misroi yodgoring jahonda qolsun deb”.<sup>2</sup>

<sup>1</sup> M. Fuat Köprülü, Türk edebiyatı tarihi, s-374

<sup>2</sup> Sayfi Saroyi, “Guliston bit-turkiy”. Uch bulbul gulshani. T., 1986-y., 170-bet

Sayfi Saroyi “Guliston”idagi hikoyatlar quyidagi boblarga bo‘lingan:

Birinchi bob – sultonlar haqidagi hikoyatlar.

Ikkinchi bob – faqirlar axloqi haqidagi hikoyatlar.

Uchinchi bob – qanoatning foydasi haqidagi hikoyatlar.

To‘rtinchi bob – sukutning foydasi haqidagi hikoyatlar.

Beshinchi bob – ishqdagi yigitlik sifati haqidagi hikoyatlar.

Oltinchi bob – qarilikdagi zaiflik sifatleri haqida.

Yettinchi bob – tarbiyaning ta’siri haqida.

Sakkizinchi bob – suhbat odoblari haqida.

Sayfi Saroyi asarning aslini aytarli saqlab qolgan, ayni paytda, asliyatdan bir qadar chekingan. Bu davr omili bilan ham bog‘liq: o‘rta asrlarda tarjimaga erkin yondashilgan – tarjimonning asarni qisqartirishi, o‘zgartirishi, hatto qo‘shimcha qilishi tabiiy hol hisoblangan. Sayfi Saroyi ham tarjima jarayonida “Guliston”dagi ayrim parchalarni tushirib qoldiradi, ba’zi she’rlarini ijodiy qayta ishlaydi, o‘zining va zamondoshlarining she’rlarini kiritadi, ayrimlarini tarjima qilmay o‘zicha qoldiradi. Shunga qaramay, tarjima muvaffaqiyatli chiqqan hamda asrlar mobaynida turkiy xalqlarni Sa’diy ijodi bilan tanishtirish va donishmand shoirning ma’naviy-axloqiy qarashlarini targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynagan.

O‘zi ham davrining barkamol shoiri bo‘lgan Sayfi Saroyi “Guliston” tarkibida kelgan she’rlar tarjimasida alohida mahorat ko‘rsatgan. Chunonchi, quyidagi bayt tarjimasida vazn o‘zgargan bo‘lsa-da, mazmun asliyatga hamohang:

*Humoy bar hama murg‘on az on sharaf dorad,*

*Ki ustuxon xo‘radu jon var nayoz orad.*

*Humoy ul ish bilan topdi sharafkim,*

*So‘ngak yeb, jonvor injitmishi yo‘q.*

Albatta, Sayfi Saroyi “Guliston”ning nasriy qismini ham katta mahorat, shoirona hassoslik bilan tarjima qilgan. Jumladan: “...dah darvesh dar gileme bumixusband va du podshoh dar iqlime nagunjad”:

*Sig‘ar bir hujraga o‘n ikki mehmon,*

*Bir iqlima sig‘ishmas ikki sulton<sup>3</sup>*

Yuqorida ta’kidlagandek, Sayfi Saroyining “Gulistoni bit-turkiy asari qipchoq turkiychasining eng aniq va sof holdagi namunasi. Quyida “Gulistoni bit-turkiy”dagi ba’zi til elementlarini hozirgi turk adabiy tilida ham uchrashini ko‘rishimiz mumkin:

*Sulton so‘rdikim: U o‘lumli kishi ne aytur?<sup>4</sup>*

“O‘lumli” so‘zi turk tilida “ölümlü” tarzida uchraydi va foniy, o‘ladigan ma’nolarini bildiradi. O‘lumli kishi esa o‘ladigan kishi, foniy inson ma’nosidadir. Bu parcha keltirilgan hikoyatda podshoh o‘lumli kishi deb o‘limga hukm etilgan mahkumni nazarda tutadi. Bu so‘z, fikrimizcha, hozirgi o‘zbek adabiy tilida ishlatilmaydi.

*Necha muflis zo‘qoqlarda yotur och,*

*Kim ersa bo‘lmas onlarniki, kimdir.<sup>5</sup>*

Baytdagi zo‘qoq so‘zi turk tilida sokak ko‘rinishida ishlatiladi va “ko‘cha” ma’nosini bildiradi.

*Yo‘qsul erga kishi kelib aytmas,*

*Bog‘-u bo‘ston xirojini bergil.<sup>6</sup>*

“Yo‘qsul” turk tilida “yoksul” tarzida uchraydi va kambag‘al, yo‘qsil kishi ma’nosini bildiradi. Yo‘qsul so‘zi bizda yaqin gacha iste’molda edi, hozirda ham badiiy asarlarda uchratishimiz mumkin.

*O‘g‘lon aytti: „Ey eranlar, yot cherikka o‘t uring,*

*Yo borib avrat qumoshin kiyib, evda o‘turung.<sup>7</sup>*

<sup>3</sup> Ergash Ochilov, “Barhayot siymolar”. T., 2012. 209-210-b

<sup>4</sup> Sayfi Saroyi, “Gulistoni bit-turkiy”. Uch bulbul gulshani. T., 1986-y., 173-bet

<sup>5</sup> Sayfi Saroyi, “Gulistoni bit-turkiy”. Uch bulbul gulshani. T., 1986-y., 187-bet

<sup>6</sup> O‘sha kitob, 170-bet

Bu baytda bizga notanish ko‘ringan “qumosh” va “ev” so‘zlari XIV asrda xalqimizning til iste‘molida bo‘lgan. Qardosh turk xalqida hozir ham bu so‘zlar ishlatiladi. “Qumosh” – “kumaş” ko‘rinishida bo‘lib, gazlama, gazmol, mato ma’nolarini bildiradi. “Ev” so‘zi ayni ko‘rinishda bo‘lib, “uy”deganidir.

Baytning ma’nosi esa, taxminimizcha bunday: “Ey erlar (erkaklar, yigitlar), dushman askarlariga o‘t uring (ular bilan jang qiling) yoki bo‘lmasa o‘ranib (ayollardek), uyda o‘tiring”. O‘ylashimizcha, avrat qumoshi bu yerda avrat matosi, avrat kiyimi bo‘lib, musulmon ayollari libosi – hijob, paranji ma’nolarini bildiradi.

Asarda bunday til elementlarini ko‘plab uchratishimiz mumkin.

Xulosa qilib aytganda “Gulistoni bit-turkiy” XIV asrda turkiy xalqlar uchun birdek tushunarli bo‘lgan asardir. Asardagi ba’zi so‘zlar hozirgi o‘zbek tilida iste‘molda bo‘lmaganligi uchun bizga begonadek tuyulishi mumkin, biroq bu so‘zlar bizniki, o‘z-o‘zimizniki bo‘lib, xalqimizning ma’naviy va madaniy boyligidir. Asarni o‘rganish, tadqiq qilish tilshunos va adabiyotshunoslar uchun birdek ahamiyatlidir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbek adabiyoti tarixi. I tom. Eng qadimgi davrlardan XV asrning II yarmigacha. “Fan”, T., 1977-yil. 221-235-betlar.
2. Sayfi Saroyi. “Gulistoni bit-turkiy”. Uch bulbul gulshani. G‘. G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti. T., 1986-yil.
3. Ergash Ochilov, “Barhayot siymolar”. “O‘zbekiston”, T., 2012-yil.
4. Mehmet Fuat Köprülü. Türk edebiyatı tarihi. “Alfa yayıncılık”. Istanbul, 2016.y., 550 s.

---

<sup>7</sup> O‘sha kitob, 170-bet